Баланс
48.3K
DiCoins

"TOSHKENT SHAHAR STATISTIK...
201 052 784

← Назад

Произвольный документ: 561 от 26.12.2023

2023-12-26 12:43:07

ПОДПИСАН

Скачать PDF Скачать архив Печать

Номер заказа Номер акта приемки Сохранить

Документ подписан:

1
дата:2023.12.26 09:49:11
серийный номер: 781f98aa
компания:YAGONA INTEGRATOR-UZINFOCOM MCHJ
инн: 204118319
фио: GIMRANOV EMIL
email:

2
дата:2023.12.26 12:43:04
серийный номер: 77b2b868
компания:TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI
инн: 201052784
фио: MIRSOATOV LAZIZJON
email:

11EEA3AA1C13DC88B4301E0008000075
идентификатор электронного документа

ПРОТОКОЛ ПОДПИСАНИЯ ДОКУМЕНТА

Поставщик	"YAGONA INTEGRATOR-UZINFOCOM" MCHJ	Покупатель:	"TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI"
ИНН	204118319	ИНН	201052784
Адрес	ГОРОД ТАШКЕНТ ШАЙХАНТАХУРСКИЙ РАЙОН NAVOIY KO'CHASI, 28-"B" UY	Адрес	AMIR TEMUR SHOH KO'CHASI 11 UY

Информация о документе

Название документа	SHARTNOMA
Номер и дата документа	№ 561 от 26.12.2023
По договору	№ 513/hrm-2023 от 26.12.2023

hrm.Argos.uz

Davlat organlari tomonidan inson resursini boshqarish yo'nalishidagi faoliyatini «hrm.argos.uz» elektron tizimidan foydalanish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun 513/hrm-2023 - sonli SHARTNOMA

Toshkent sh.

2023-yil, dekabr

"Toshkent shahar statistika boshqarmasi", keyingi o'rinlarda "**Buyurtmachi**" deb yuritiladi, Nizom asosida harakat qiluvchi Boshqarma boshlig'i **L.T. Mirsoatov** bir tomondan, "Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator UZINFOCOM" MCHJ, keyingi o'rinlarda "**Ijrochi**" deb yuritiladi, Nizom asosida harakat qiluvchi Bosh direktor **E.I. Gimranov** ikkinchi tomondan, keyingi o'rinlarda birgalikda "**Taraflar**" deb yuritiladi, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 22 sentabrdagi 492-son qaroriga muvofiq Ijrochi Buyurtmachiga **Davlat fuqarolik xizmati sohasida inson resurslarini boshqarish "hrm.argos.uz" axborot tizimi** (keyingi o'rinda – Tizim) foydalanishda abonentlarga quyidagi xizmatlarni ko'rsatish majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

– Buyurtmachining rahbarini va inson resurslarini boshqarish yo'nalishiga mas'ul xodimlarini hrm.argos.uz tizimida ro'yxatdan o'tkazish va unda ishlashida konsultatsiya berish;

– Buyurtmachhining inson resurslarini boshqarish yo'nalishiga mas'ul xodimlariga mos rolni biriktirish;

– Tizimda Buyurtmachining shaxsiy kabinetini yaratish, o'zgartirish va nofaol statusini biriktirish;

– Buyurtmachining xodimlarini Tizimda ishlashi bo'yicha metodologik qo'llanmalar bilan ta'minlash. Tizimdagi texnik o'zgartirishlar bo'yicha zarur hollarda yangi qo'llanmalarni yaratish, o'zgartirish va o'chirish;

Buyurtmachi esa Ijrochi tomonidan bajarilgan ishlarni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish va mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan abonent to'lovini to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Ijrochi ushbu Shartnoma Buyurtmachi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi (keyingi o'rinlarda "G'aznachilik" deb yuritiladi)dan ro'yxatdan o'tkazilib, dastlabki to'lov - bo'nak amalga oshirilgandan so'ng 2 (ikki) ish kuni ichida ishlarni bajarishni boshlaydi.

1.3. Ushbu turdagi ishlar "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom"ga 2-ilova bilan tasdiqlangan "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlari tomonidan amalga oshirishga ruxsat etilgan faoliyat turlarining ro 'yxati"ning 2-bandiga mos keladi.

2. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

2.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan ishlar yakuni bo'yicha Ijrochi har oyda Buyurtmachiga amaldagi qonunchilikda belgilangan shaklda va tartibda hisob-fakturasini taqdim etadi.

2.2. Buyurtmachi Ijrochi tomonidan kiritilgan hisob-fakturani 5 (besh) kun ichida ko'rib chiqadi va imzolaydi. Buyurtmachida amalga oshirilgan ishlarning sifatiga e'tirozlar mavjud bo'lsa, bu haqda Ijrochini yozma ravishda bartaraf etilishi lozim bo'lgan kamchiliklarni ko'rsatgan holda ogohlantiradi. Buyurtmachi tomonidan 5 (besh) kun ichida hisob-faktura asoslantirilgan holda imzolash rad etilmasa, Ijrochi o'z majburiyatlarini bajargan hisoblanadi va Buyurtmachida amalga oshirilgan ishlar doirasida Ijrochiga to'lovni amalga oshirish majburiyati paydo bo'ladi.

2.3. Shartnomaning 2.2-bandida nazarda tutilgan ishlarni qabul qilishni rad etish holati yuz berganda Buyurtmachi va Ijrochi o'rtasida bartaraf etilishi zarur bo'lgan kamchiliklar ro'yxati va ularni bartaraf etish muddatlari ko'rsatilgan dalolatnoma tuziladi.

2.4. Hisob-faktura Buyurtmachi va Ijrochi tomonidan amaldagi qonunchilik talablari asosida imzolanadi.

3. SHARTNOMANING UMUMIY QIYMATI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Shartnomada nazarda tutilgan texnik ishlarni amalga oshirish xizmati uchun har oylik abonent to'lovi shu shartnomaning birinchi ilovasiga asosan tashkil etadi.

3.2. Shartnoma bo'yicha to'lov Buyurtmachi tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

3.2.1. Buyurtmachi dastlabki to'lov sifatida abonent to'lovining 30%ni shartnoma Buyurtmachi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida Ijrochining hisob raqamiga oldindan o'tkazib beradi.

3.2.2. Shartnoma bo'yicha keyingi to'lovlar oyma-oy Buyurtmachi tomonidan abonent to'lovining 70% miqdorida Ijrochi tomonidan hisob-faktura taqdim etilgan kundan boshlab, 5 (besh) bank kuni mobaynida Ijrochining hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

3.2.3. Shartnomada nazarda tutilgan ishlar yakunida Buyurtmachi va Ijrochi mazkur Shartnoma doirasida hisob-kitoblar solishtiruvini amalga oshirishlari mumkin. Hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasi Ijrochi tomonidan Buyurtmachi so'roviga muvofiq taqdim etiladi.

3.3. Ijrochining hisob raqamiga dastlabki to'lov kelib tushgan sana xizmatlar ko'rsatishni boshlash sanasi hisoblanadi.

4. TARAFLARNING HUQUQLARI

4.1. **Buyurtmachi huquqlari:**

4.1.1. Ijrochidan mazkur Shartnoma bo'yicha olingan majburiyatlarni Shartnoma shartlariga va Shartnomada belgilangan muddatlarga amal qilishini talab qilish;

4.1.2. Ijrochi tomonidan amalga oshirilgan ishlar sifati yuzasidan o'z e'tirozlarini bildirish va kamchiliklarni beg'araz bartaraf etishni talab qilish;

4.1.3. Ijrochi mazkur Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarmagan holatlarda, ishlarni moliyalashtirishni to'xtatish;

4.1.4. Shartnoma shartlarining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

4.1.5. Tizimni takomillashtirish va yangilash bo'yicha Ijrochiga takliflar kiritish.

4.2. **Ijrochi huquqlari:**

4.2.1. Buyurtmachi tomonidan hisob-fakturasi, kamchiliklarni bartaraf etish dalolatnomasi vaqtida ko'rib chiqilmagan yoki vaqtida pul mablag'lari o'rnatilgan tartibda o'tkazilmagan hollarda ishlarni amalga oshirishni to'xtatib turish, Shartnomani bekor qilishni talab qilish;

4.2.2. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarish uchun uchinchi shaxslarni - subijrochilarni jalb qilish;

4.2.3. Tizimning barqaror ishlashiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan foydalanuvchilarni Tizimdan o'chirish.

5. TARAFLAR MAJBURIYATLARI

5.1. **Buyurtmachi majburiyatlari:**

5.1.1. Shartnomada nazarda tutilgan ishlar yuzasidan Ijrochi bilan o'zaro munosabatlarga kirishuvchi mas'ul shaxs ajratish;

5.1.2. Shartnomada nazarda tutilgan ishlarni amalga oshirish uchun Ijrochiga zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish;

5.1.3. Shartnomani amalga oshirishda ma'lum bo'lgan tijorat siri, moliyaviy ma'lumotlar, Tizimning texnik xususiyatlari va boshqa maxfiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik;

5.1.4. Tizim ishlashi uchun o'z tashkiloti doirasida sharoit yaratish;

5.1.5. Ijrochi tomonidan kiritilgan hujjatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish;

5.1.6. Shartnomaning 3.1-bandida belgilangan pul mablag'larini o'z vaqtida to'lash;

5.1.7. Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma imzolanib, taqdim etilgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni davomida Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish.

5.2. **Ijrochi majburiyatlari:**

5.2.1. Shartnomaning 1.1-bandida belgilangan ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish;

5.2.2. Shartnoma shartlarini bajarish masalalarida Buyurtmachi bilan o'zaro munosabatlarga kirishuvchi mas'ul shaxs ajratish;

5.2.3. Shartnoma shartlarini bajarish jarayonida Buyurtmachi so'roviga binoan tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflarni amalga oshirish va holati yuzasidan ma'lumot berish;

5.2.4. Shartnomani bajarishda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablariga rioya qilish;

5.2.5. Shartnomani amalga oshirishda ma'lum bo'lgan tijorat siri, moliyaviy ma'lumotlar va boshqa maxfiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik;

5.2.6. Kafolatlangan texnik xizmat ko'rsatish doirasida Tizimdan foydalanishda aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish;

5.2.7. Shartnoma shartlarining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar mazkur Shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki to'liq bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan darajada teng javobgar bo'ladilar.

6.2. Taraflarda mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik holatlari yuzaga kelsa, taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida hal qilinadi.

6.3. Mazkur Shartnoma Buyurtmachi tashabbusiga ko'ra muddatidan avval bekor qilinsa, Ijrochiga amalda bajarilgan ish hajmi uchun pul mablag'larini to'lab beradi.

6.4. Ijrochi mazkur Shartnomada belgilangan majburiyatlarini to'liq bajarmagan taqdirda Buyurtmachiga Shartnoma doirasida o'tkazib bergan barcha pul mablag'larni qaytarishni talab qilish huquqiga ega. Shunday holatda Ijrochi Buyurtmachining talabi kelib tushgandan 15 (o'n besh) kun ichida mazkur pul mablag'larini qaytarib beradi.

6.5. Ijrochi o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan taqdirda majburiyatlarni bajarishni kechiktirilgan har bir kun uchun Buyurtmachiga kechiktirib bajarilgan majburiyatlar qiymatining 0,4% miqdorida, ammo kechiktirib bajarilgan majburiyatlar umumiy qiymatining 50% idan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.6. Buyurtmachi to'lovlarni kechiktirgan taqdirda Ijrochiga har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov miqdorining 0,4% miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lovlar miqdorining 50% idan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

7. SHARTNOMANI IJRO ETISH

7.1. Mazkur Shartnoma taraflar tomonidan mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari doirasida bajarilishi shart.

7.2. Mazkur Shartnoma barcha Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargan holatda ijro etilgan hisoblanadi.

7.3. Mazkur Shartnomani ijro etishdan bir taraflama voz kechish yoki mazkur Shartnoma shartlariga bir taraflama o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

7.4. Ijrochi tomonidan mazkur Shartnomada nazarda tutilgan ishlarni amalga oshirilganlik fakti Ijrochi va Buyurtmachi tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-faktura bilan tasdiqlanadi.

7.5. Mazkur Shartnomaning ijro etish muddatlari taraflarning roziligi bilan qo'shimcha kelishuv tuzish orqali o'zgartirilishi mumkin.

8. FORS-MAJOR

8.1. Taraflar majburiyatlarni bajarmaganligi yoki to'liq bajarilmaganligi uchun agar ushbu vaziyat Shartnoma tuzilgan keyin yuzaga kelgan va oldindan kutilmagan favqulodda vaziyatlar, yengib bo'lmas kuch (fors-major) tufayli yuzaga kelganini isbotlab bersalar javobgarlikka tortilmaydilar,

8.2. Fors-major holatlariga harbiy harakatlar, tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini va boshqalar) kiradi.

8.3. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida Taraflar bir-birini ushbu vaziyat yuzaga kelganligi ma'lum bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida ogohlantirishlari lozim.

8.4. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaziyatda, majburiyatlarni bajarish muddatlari ushbu vaziyatlar va ularning oqibatlari bartaraf etilgunga qadar uzaytiriladi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

9.1. Mazkur Shartnoma Taraflar tomonidan imzolanib, Buyurtmachi tomonidan G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi va 2023-yil 31-dekabriga qadar amal qiladi.

9.2. Mazkur Shartnoma quyidagi hollarda muddatidan avval bekor qilinishi mumkin:

9.2.1. Taraflarning yozma kelishuvi asosida, qo'shimcha kelishuv tuzgan holda;

9.2.2. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda.

10. TEXNIK XIZMATNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

10.1. Mazkur Shartnomaga muvofiq texnik xizmat ko'rsatishda quyidagi atamalardan foydalaniladi:

"Mas'ul ma'mur" – Ijrochining Tizim bilan ishlovchi va uni konsultativ va texnik qo'llab-quvvatlovchi xodimlari;

"qo'shimcha" – dasturiy ta'minotning ishga tushirilgandan keyin qo'shimcha funksionallar qo'shish yoki mavjudlari imkoniyatini kengaytirishga ehtiyoj sezish;

"xatolik" – avariya, nosozlik va muammo yuzaga kelganda foydalaniluvchi umumiy atama;

"texnik qo'llab-quvvatlash" – foydalanuvchi tomonidan Tizimning dasturiy ta'minotida yuzaga kelgan xatolikni joyiga chiqqan holda bartaraf etish;

"qo'shimcha xizmatlar" – Ijrochi tomonidan taqdim etiluvchi texnik qo'llab-quvvatlash tarkibiga kirmaydigan xizmatlar.

"qo'llab-quvvatlash aloqa liniyasi" – Ijrochi tomonidan Buyurtmachiga xatolik yuz berganda va qo'shimcha xizmatlarni taqdim etish uchun so'rov yuborish uchun ajratilgan aloqa vositasi;

"texnik qo'llab-quvvatlashga so'rov yuborish" – Buyurtmachi vakili tomonidan Tizim ilova dasturiy ta'minotida yuzaga kelgan xatolikni bartaraf etish so'rovini yuborish;

10.2. Konsultatsiya va texnik qo'llab-quvvatlash quyidagicha amalga oshiriladi:

10.2.1. Dasturiy ta'minotdagi xatolikni joyiga chiqqan holda bartaraf etish;

10.2.2. Buyurtmachi vakilining savollariga mas'ul ma'mur tomonidan javob berish.

10.3. Konsultatsiya va texnik qo'llab-quvvatlash Ijrochi tomonidan o'zbek va rus tillarida 71 202-22-02*1 telefon raqami yoki telegram ijtimoiy tarmog'i orqali amalga oshiriladi. Konsultatsiya va texnik qo'llab- quvvatlash aloqa liniyasi ish kunlarida (amaldagi qonunchilik talablari asosida) Toshkent vaqti bilan soat 9:00 - 18:00 davomida amalga oshiriladi. Ish kunidan so'ng kelib tushgan so'rov keyingi ish kunida soat 9:00 kelib tushgan hisoblanadi.

10.4. So'rovlarni ko'rib chiqish muddatlari:

Xatolik turi	Xatolik yuzasidan ishlar boshlangani to'g'risida xabar berish (ish soati va ish kuni)	Xatolik bartaraf etilishi (ish kuni va soati)
avariya	4 soat	1 ish kuni
muammo	1 ish kuni	3 ish kuni
nosozlik	1 ish kuni	ish tartibida

10.5. Xatolikni bartaraf etish Ijrochi Buyurtmachini shu haqda va amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar haqida ogohlantirishi va shu masalada barcha amaliy yordam ko'rsatishi kerak.

10.6. Mazkur Shartnoma muddati yakunlangach Taraflar alohida yozma kelishuv asosida mazkur munosabatlarni davom ettirishlari mumkin.

11. NIZOLARNI KO'RIB-CHIQISH TARTIBI

11.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan nizolar muzokaralar orqali hal etiladi, o'zaro kelishuvga kelish imkoni bo'lmaganida Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

12. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

12.1. Taraflar Shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, Shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

12.2. Taraflar Shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

12.3. Har bir Taraf Shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan Shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qimmatliklar berilmaganligini, Shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qimmatliklar olinishiga yul qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan Shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

12.4. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

12.5. Agar bir tarafga boshqa Tarafning korrupsiyaga qarshi shartlarda belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi Tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu Tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor qilishni talab qilishi shart.

13. YAKUNLOVCHI SHARTLAR

13.1. Mazkur Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan har bir Taraf uchun alohida 2 (ikki) nusxada tuziladi.

13.2. Mazkur Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar Taraflarning o'zaro roziligi asosida qo'shimcha yozma kelishuv tuzish va uni vakolatli vakillar tomonidan imzolanishi orqali kiritiladi.

14. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI, REKVIZITLARI VA IMZOLARI

"Ijrochi"	**"Buyurtmachi"**
"Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator UZINFOCOM" MCHJ Toshkent shahar, A.Navoiy ko'chasi, 28 B-uy "Kapital bank" ATB Toshkent shahar filiali H/r: 20208000904198204002 MFO: 00445 STIR: 204118319 OKED: 62090	Toshkent shahar statistika boshqarmasi, 100047, Toshkent sh., Amir Temur shox ko'chasi, 11-uy STIR: 201052784
Bosh direktor **GIMRANOV EMIL ILDAROVICH**	Boshqarma boshlig'i **MIRSOATOV LAZIZJON TO'YCHIBOY O'G'LI**